

## MUMTOZ ADABIYOTDA KUCHAYTIRUVCHI -TA'KID QO'SHIMCHALAR VA UNI QO'LLAGAN SHOIRLARIMIZ

Olimova (Sobirova) Bahoroy Orifjon qizi

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada mumtoz adabiyotda ta'kid kuchaytiruvchi qo'shimchalar va uni qo'llagan shoirlarimiz, tilshunoslikda yordamchi so'zlar alohida kategoriyani tashkil qilinishi va maxsus o'rganilishi, Bugungi kunda darslik va o'quv qo'llanmalarda kuchaytiruv –ta'kid yuklanmalarning qo'llanilishi haqida ma'lumot berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *primat, intensionallikni, turkum, grammatik, affiks, onglar nazariyasi.*

**Аннотация:** *В данной статье выделены в отдельную категорию и специально изучены усиливающие ударение дополнения в классической литературе и употреблявших их наших поэтах, вспомогательные слова в языкознании, даны сведения о применении нагрузок.*

**Ключевые слова:** *первичность, интенциональность, категория, грамматика, аффикс, теория сознания.*

**annotation:** *In this article, emphasis-intensifying additions in classical literature and our poets who used them, auxiliary words in linguistics are organized into a separate category and are specially studied. information on the application of loads is given.*

**Keywords:** *primacy, intentionality, category, grammar, affix, theory of minds.*

### KIRISH

Til deb murakkab muloqot tizimiga yoki shu tizimni o'rganish va ishlatish qobiliyatiga aytiladi. Til asosan muloqot vositasi hisoblanadi. Tilni o'rganuvchi sohaga tilshunoslik deyiladi. Jahon tillari miqdorini aniqlash uchun til va sheva orasida farq o'rnatish zarur. Shunga qaramay, tillar soni 6–7 ming orasida, deb hisoblanadi. Tabiiy til so'zlashuv yoki imo-ishora orqali tarqaladi, biroq har qanday til eshitish, ko'rish, sezish stimullari yordamida yozuv, braille yoki hushtak kabi ikkilamchi vositaga kodlanishi mumkin. Bu odam tili modallikdan mustaqil bo'lgani uchun ilojli. Keng ma'noda til atamasi ostida biror muloqot tizimining tayinli qoidalari majmuasi tushuniladi. Barcha tillar semiozisga, ya'ni belgilarni tegishli ma'nolarga bog'lash jarayoniga tayanadi. Og'zaki va imo-ishora tillari ramzlar ketma-ketligini so'z yoki morfema qilib shakllantiruvchi fonologik tizim hamda so'z va morfemalar ketma-ketligidan

ibora va gaplarni hosil qiluvchi sintaktik tizimni o'z ichiga oladi. Odam tili unumdorlik, rekursivlik va siljuvchanlik xususiyatlariga ega ekanligi hamda ijtimoiy kelishuv va o'rganishga butunlay asoslangani uchun unikaldir. Binobarin, uning murakkab tuzilishi hayvonlar muloqotiga nisbatan juda keng ifoda va qo'llanishlar ko'lamini beradi. Til erta homininlar asta-sekin primat muloqot tizimlarini o'zgartira boshlagan paytda, boshqa onglar nazariyasini shakllantirish qobiliyati va intensionallikni o'rganayotganida yuzaga kelgan, deb taxmin etiladi.

### ADABIYOTLAR VA METADOLOGIYA.

Ma'lumki, tilshunoslikda yordamchi so'zlar alohida kategoriyani tashkil qiladi va maxsus o'rganiladi. Yordamchi so'zlarning umumiy funksional belgisi sifatida ularning "bog'lash"lik xususiyatini olishimiz mumkin. Shu belgi asosida ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalar so'z va gaplarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladi. Ammo bu vazifa bog'lovchi va ko'makchilar uchun o'zgarimas va barqaror sanaladi.

### NATIJA VA MUHOKAMA.

Ushbu holat til sathining ma'lum bir bo'lagi bo'lmish yuklamalarga ham oiddir. Fikrning borliqqa bo'lgan munosabatini bildirib, so'z va gaplarga turli modal ma'no qo'shadigan, o'zi birikkan gapning ma'nosini ta'kidlab, kuchaytirib, chegaralab, so'zga ishonch, gumon, tasdiq, inkor ma'nolarini qo'shish uchun ishlatiladigan yordamchi so'z turkumi bo'lmish yuklamalarning tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning tuzulishiga ko'ra turi har qachon 2 ga, ya'ni :

1. So'z yuklamalar: faqat, hatto, nahotki, ham, xuddi, naq

2. Qo'shimcha yuklamalar: -mi, -chi, -a(-ya), -oq(-yoq), -ku, -ki, -gina(-kina, -qina)kabi turlarga bo'linganligini bilib olishimiz mumkin. Ammo ushbu turkumning ma'no turi haqida gap ketganda tilshunos olimlar va mustaqil tadqiqotchilarning turli xil qarashlariga duch kelamiz. Jumladan, Mirtojdiyev yuklamalarni ma'nosiga ko'ra 4 ta guruhga bo'lgan.

1. So'roq yuklamalari

2. Ta'kid yuklamalari

3. Ayiruv yuklamalari

4. Kuchaytiruv yuklamalari

Bugungi kunda darslik va o'quv qo'llanmalarda kuchaytiruv –ta'kid deya o'rganib kelayotgan yuklamalarimizni olim kuchaytiruv va ta'kid yuklamalari deya bo'lib o'rgangan. Buni 1992 –yil nashr etilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" nomli kitobida shunday izohlaydi: "Ta'kid yuklamalari o'zi qo'shilgan gap bo'lagiga diqqat qaratilganlik ma'nosini beradi. Ular –ku, -da, -u(-yu) qo'shimchalaridan iborat. Masalan, Yosh bo'lsa-da bosh edi gapidagi –da

yuklamasi yosh bo'lsa bo'lagiga qo'shilib, undan anglashilgan ma'noga diqqatni qaratgan. Kuchaytiruv yuklamalari gapda biror bo'lakdan anglashilgan ma'noni kuchaytirib ifodalaydi. Ular hatto, hattoki so'zi va – oq,(yoq) qo'shimchasidan iborat.

Shavkat Rahmatullayev –u,(–yu), –da, –ku, –oq,(–yoq), nahot, hatto, (hattoki) yuklamalarini kuchaytiruv –ta'kid yuklamalari deya o'rganishni tadbiq etadi. Aynan shunday yondashuvni S. Rahimov asarlarida ham uchratish mumkin. –u,(–yu), –da, –ku, –oq,(–yoq), nahot, hatto, (hattoki) yuklamalarini kuchaytiruv –ta'kid yuklamalari deya bir guruh sifatida o'rganish azaldan tilshunoslar e'tirofida bo'lgan. Bu fikrlarimizni quyidagi misollar orqali oydinlashtiramiz: –oq yuklamasi gapning har qanday bo'lagi bilan kela oladi va shu bo'lakni ta'kidlab, alohida ajratib ko'rsatadi. Masalan, Dunyoni kezdin-u ,zebo, seni-oq ko'rdim, bas! (Lutfiy)-oq yuklamasi ravishdoshga qo'shilganda bir ish-harakat ketidan tezlik bilan ikkinchisi kelishini ko'rsatadi. Masalan, Sulton Mahmud mirzog'a bu xabar yetkech-oq taxtqa o'lturdi. (BN,29) Faqat ularni bir guruh sifatida o'rganish mustaqillikdan keyingi yillarda ko'plab ilmiy asarlardan o'rin olib, darsliklarga kiritildi. Kuchaytiruv –ta'kid yuklamalari vositalarini tahliliga yuzlanadigan bo'lsak, ular quyidagilar:1.Ham yuklamasi ta'kid ma'nosini ifodalab barcha gap bo'laklariga qo'shilib kela oladi:

–ega bilan : U shunday ehtiyotkorlik bilan emakladiki, hatto qamishlar hamshitirlamadi. ( Said Ahmad)

–kesim bilan : Ajralishar, ular, hattoki, Ismlarin so'rashmaslar ham.

–aniqlovchi bilan : Lekin ellik yil yo'lda hamroh bo'lgan, birga o'y surib, birga qog'oz qoralagan do'stning hamaytadigan gaplari border, axir! ( Said Ahmad)

–to'ldiruvchi bilan : Ketma –ket ravishda ming marta, balki undan

–da ko'p harflarning kuragini yerga tekkizgan polvon agar dono bo'lsa, o'ziga bino qo'ymaydi, ming birinchi harifni ham, albatta, majaqlayman, deb katta ketmaydi. (Tohir Malik)

–hol bilan : Nahot, axir, so'nggi dam ham Farzandingni o'ylasang.

( Abdulla Oripov)

Ushbu yordamchi birlikning bizning tadqiqotimiz uchun muhim bo'lgan yuklamalik xususiyatlarini, qanday konnataiv ma'nolarni ifodalab kelishini badiiy matn asosida ko'rib chiqamiz. Iqbol Mirzo o'zining qator she'rlaridan na... na yordamchi birlikni qo'llaydi va u orqali asarini o'zgacha emotsional bo'yoq bilan bo'yashga erishadi:

Huvillagan dunyo, huvillagan qalb,

Na quvonch, na rayhon, na g'am, na yalpiz...

Qip-qizil qumlarni kechdim yuz yillab,

O'zim bilan o'zim yashadim yolg'iz

Yuklamalar boshqa yordamchi so'zlarga nisbatan konnotativ ma'no qiymatining yuqoriligi bilan farqlanadi. Masalan -dir yuklamasi lisoniy vositalarga qo'shilgandagumon ma'nosini voqelantiradi va u so'zlashuv, badiiy uslubga xosligi, o'z lisoniy imkoniyatlarini voqelantirishi uchun ana shunday qulay vaziyat bo'lishini taqazo qiladi. -dir yuklamasi so'roq olmoshlari, otlar, ko'makchilar bilan qo'llanilishi yoki har xil grammatik (son, daraja, egalik, kelishik v. b.) shakllarda kelishi mumkin. She'riy shakldagi matnda ko'proq so'roq olmoshlari bilan birgalikda qo'llanilganligining guvohi bo'lamiz:

Qizlar... gapirmayman ular haqida,

Ularga she'r kerak, kerakmas shoir.

Kingadir yig'lagim kelar gohida...

Xayr, qaytayotgan turnalarim, xayr!

XULOSA. Xulosa qilib aytganda yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib ayta olamizki, birgina affiks yuklama butun boshli gapning ma'nosiga qo'shimcha ma'no yuklab, kuchli konnatatatsiya hodisasini yuzaga chiqara olar ekan.

#### FOYDALANGAN ADBIYOTLAR

1. Mirzo. I. ko'zlaringga termulsaydim. – T.: Sharq, 2020.
2. Sayfullayeva R. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T.2009.
3. Umrqulov B. poetic nutq leksikasi. – T. : Fan. 1990.
4. <http://www.newjournal.org/>